

IJTIMOIIY FANLAR

TOHIR MALIKNING “SHAYTANAT” ROMANIDA MULOQOT BIRLIKLARINING SOTSIOLINGVISTIK TAHLILI

IBRAGIMOVA ZAMIRA YULDASHEVNA,

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

ORCID: 0008-0009-2833-2385

i.zamira@karsu.uz

DADEBAYEVA MALIKA MIRATBAYEVNA,

Qoraqalpoq davlat universiteti

O‘zbek filologiyasi fakulteti

2-bosqich talabasi

Kalit so‘zlar: Badiiy asar, badiiy til, asar qahramonlari, yozuvchi mahorati, kommunikatsiya, milliy ong

Annotatsiya. Biz ushbu maqolada Tohir Malikning “Shaytanat” romanidagi aloqa birliklarini ko‘rib chiqamiz. Turli ijtimoiy mavqega ega bo‘lgan odamlarning xarakterini suhbatlari orqali o‘rganishga harakat qilamiz.

СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОММУНИКАЦИОННЫХ ЕДИНИЦ В РОМАНЕ ТАХИРА МАЛИКА “ШАЙТАНАТ”

Ключевые слова: Художественное произведение, художественный язык, герои произведения, писательское мастерство, коммуникация, национальное сознание.

Аннотация. В этой статье мы рассмотрим единицы связи в романе Тахира Малика «Шайтанат». Мы пытаемся изучить характер людей разного социального статуса через их разговоры.

SOCIOLINGUISTIC ANALYSIS OF COMMUNICATION UNITS IN TAHIR MALIK'S NOVEL “SHAYTANAT”

Key words: Artistic work, artistic language, heroes of the work, writing skills, communication,

Abstract. In this article, we will consider the communication units in Tahir Malik's novel "Shaitanat". We try to study the character of people of different social status through their conversations.

national
consciousness

Ma'lumki, adabiy tilning badiiy mukammallikka, milliy xarakterlar yaratishdagi o'ziga xoslikka erishishida so'z san'atkorlarining mashaqqatli xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim. Shu bois ularning asarlari tili va uslubini lingvistik jihatdan o'rganish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega. Zero, «o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkur ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Mukammal badiiy asarlarning sevilib o'qilishining asosiy sabablaridan biri uning hayotiyligidir. Asarni o'qishga kirishgan odam o'zini undagi voqealar chinakam hayotda yuz berayotganday his qiladi. Asar qahramonlari qiynalsa, qiynaladi, quvonsa, sevinadi. Bu esa asrni yaratuvchining ijodiy mahorati, salohiyati, bilimi yuqori darajadaliigidan dalolat beradi[4:182].

Tohir Malikning "Shaytanat" romanining badiiy namunalarning eng cho'qqisida ekanligini etirof etamiz. Boisi asar har tomonlama tahlil qilinganda uning mukammal darajada yaratilganligiga guvoh bo'lamiz. Adib ijodini chuqurroq tekshirish, tilshunoslarning oldida turgan muhim, ayni damda, katta mas'uliyatli vazifalardan biridir. Badiiy asarning qimmatini, avvalo, uning badiiy tili bilan belgilanadi. Badiiylik har qanday adabiyotning bosh mezoni bo'lib, u adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganiladi. So'zning ko'chma ma'nolari ana shu badiiylikni yuzaga chiqaruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Badiiy asarni tahlil qilishda uning lisoniy jihatlariga ham e'tibor qaratiladi. Tohir Malikning "Shaytanat" romanining lisoniy tomonlarini, xususan, asardagi muloqotlarning sotsiolingvistik jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Muloqot-bu ikki yoki undan ortiq kishilarning afektiv baholovchi xarakterda va bilish bo'yicha ma'lumot almashishdan iborat bo'lgan o'zaro ta'sir etishdir. Sotsiolingvistikada "kommunikatsiya" "muloqot" so'zining sinonimi sifatida qo'llaniladi. Kommunikatsiya xabarni uzatish, fikr va ma'lumotlar almashinuvi, ya'ni muloqot qilishdir[1:31]. Muloqot har doim ham bir tekis silliq kechavermaydi. Chunki ushbu jarayon qatnashuvchilarning xulq-atvori bilan bog'liq va har xil kishilarning so'zlashuvi har xildir. Muloqotda qatnashuvchi shaxslarning ishtirokiga ko'ra, dialog (ikki kishilik), polilog (ko'p kishilik) bo'lishi mumkin. Adabiy asarlarda dialog va poliloglar qahramonlar xarakterini ochuvchi asosiy unsurlardandir. Asardagi qahramonlarning suhbatlari orqali uning qay toifa odami ekanligini, ijtimoiy maqomi, yoshi, jinsi, qay hududdan ekanligini anglash mumkin. Tohir Malik "Shaytanat" romani shunday mahorat bilan yaratganki, asardagi dialoglarda suhbatdoshlarning kutilmagan javoblari o'quvchini "titratib" yuboradi. Shuni ta'kidlash joizki, asarda ko'plab dialog va poliloglar qo'llanilgan bo'lib, ular asarning badiiy qiymatini oshirishda salmoqli o'rin egallagan. Masalan:

"Karimulla Asadbek yolg'iz emasdir, degan havotirda edi. Ichkariga kirgach, yayrab ketdi. Ildam yurib kelib Asadbek bilan qo'shqo'llab so'rashdi. Asadbek o'rnidan qo'zg'almay qo'l uchini berdi...[2:73]

-Gapni cho'zma. Menga qanaqa xabar yetkazishni bilishadi. Haj qilmoqchimishsan, bu ham yolg'onmi?

-Rost, begim rost. Men asli shu gapni aytay deb keluvdim. Oqsoqollar Asadbek aka ham borsinlar, deyishyapti, billalashib borsam biram yarashadi. Siz bilan borsak, ikki marta haj qilganday bo‘lamiz.

-Sen bilan yursam yarashadimi?

-Men bilan yurmasangiz ham... Asadbek hoji bo‘lib yurishingiz yarashadi.

-Pulni qayerdan olasan. Kambag‘al-faqir bo‘lsang?..

-begim, qarindosh-urug‘ bor, hozir o‘n besh ming pulmi? Gunohlarni ko‘p qilardik, oxiratni o‘ylamasak...

-oxiratni deign... O‘n besh mingni to‘lab, u yoqdan mayda-chuyda olib kelsam, xarajatni qoplarmikin?

Asadbek bu savolni sinov uchun bergandi. Buning fahmiga yetmagan Karimullaga jon kirdi.

-Chiqadi, begim, uncha-muncha qoladi ham.

-Xarajatdan tashqari yigirma ming qolarmikin?

Karimulla bu savolga o‘ylanmay-netmay javob qaytardi:

-Yigirma ming chiqmas-ov, ammo o‘n mingcha qolar.

-Shunaqa degin, hisoblab qo‘yibsan-da, a?

-Endi odamlar aytib yurishibdi-ku...

Asadbek javonga yaqinlashib, eshigini ochdi. Karimulla taxlanib turgan pullarni ko‘rib, entikib ketdi. “Xarajatni ko‘taradi shekilli”, deb quvondi.

-Qarindoshlaringni tinch qo‘y.-dedi Asadbek, pul sanay turib. –Mana senga o‘n ming. – u shunday deb beli bukilmagan pullarni Karimulla tomon tashadi.

Karimullaning pulga uzatgan qo‘llari muallaq qolaverdi. –Sen harom qadamlaringni Makkaga bosma. Makkaga pokiza odamlar borishi kerak. Yo‘qol endi, ko‘zimga ko‘rinma[2:74].

Dialog jo‘shqin bo‘lishi, kishining ruhiy kechinmalarini ko‘rsatibgina qolmay, xarakterini ham ochib berishi lozim.[3:176,177] Yuqorida keltirib o‘tgan dialogimizning o‘zi ham Asadbekning va uning suhbatdoshi Karimullaning xarakterini ochib bera oladi, ya’ni bu asarni o‘qimagan odam ham ushbu dialogni o‘qisa ularning fe‘l-atvorini bilib olishi mumkin. Karimulla o‘zi mulla odam bo‘lsa ham naqadar iflosligi, hattoki haj safariga ham Ollohning uyini ziyorat qilish, insonlik farzini bajarish uchun emas, savdo qilib foydalanish ilinjida bormoqchi. Uning bunday pastkash insonligini esa Asadbek juda yaxshi biladi. Bilgani uchun ham mulla bo‘lishiga qaramay uni umuman hurmat qilmaydi. Buni esa Asadbekning salomga o‘tirgan joyida qo‘lining uchini tutganidan ham bilamiz. Asadbek esa juda aqilli, hayot qiyinchiliklarini boshidan kechirgan, jiddiy, sovuqqon mafiya. Ko‘rishimiz mumkinki, u yomon xulqli insonlarni kim bo‘lishidan, lavozimi, kasbi, obro‘sidan qat’i nazar unga mulozamat qilib o‘tirmaydi. Buni yuqoridagi mullaga “harom qadamlaringni Makkaga bosma” degan jumlaridan anglay olamiz. ”Shaytanat” romanidagi mafiyalar hayotidan so‘z yuritadi. Mafiyalarning mafiya bo‘lgunga qadar kechgan hayotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bolaligi yaxshi kechgan, oddiy bolalar kabi hayot kechirgan mafiyalarni eslash qiyin. Chunki mana shu mafiya bo‘lishiga sabab ham ana shu og‘ir bolalikdir. Asadbek ham shu kabi og‘ir bolalikni boshidan kechirgan. O‘g‘rilik, qimorning orqasida mafiyalar koshonasiga qadam qo‘ygan. Uning gapiga hech kim qarshi chiqa olmaydi. Xohlagan joyiga qo‘li yetadi. Lekin

bunday qudratli insonning ajoyib bir do'sti bilan munosabat, muloqotlarini ko'rsak, juda qiziq holatlarni kuzatishimiz mumkin. U do'sti Jalildir. Asadbekdan hamma qo'rqadi, unga qarshi gapirish tugul ko'ziga tik qarashga ham jazm qila olmaydi. Lekin Jalil shunday insonki, u doim haqiqatni, ichidagi gapini tortinmay yuziga aytadi:

-Qizimni o'g'irlashdi, -dedi. Shu gapni aytdiyu uyatdan aytdiyu uyatdan yonib ketay deb ko'zini olib qochdi. Aybiga iqror bo'lgan gunihkorday boshini egdi.

-Qachon? Topilmadimi?

-Kecha o'zlari tashlab ketishibdi.

-Kimligini bildingmi?

-Aniq bilmayman. Gumonim bor.

Jalil o'nga toldi. Bir necha nafasdan so'ng xo'sindi:

-Xudodan qaytibdi

Asadbek boshini shartta ko'tardi;

-Bu nima deganing?!

-Sen maishat qilgan qizlarning ham ota-onalari bore di, ular ham ezilgandir, Xudoga nolalar qilgandir, Xudo kar emas, bu ohlarni eshitgandir...

Asadbek esa uning bu gaplarini o'ziga to'g'ri qabul qiladi. Asadbek mafiya bo'lishiga qaramay Jalil bilan oddiy do'stlardek suhbatlashadi.

Ushbu dialogda Jalilning Asadbek uchun qanday maqomda turishini bila olamiz. Jalil oddiy inson, hech qanday mafiya yoki boyvachcha ham emas. Shunga qaramay Asadbekday odam uning gapiga kiradi, uni hurmat qiladi. Demak bu o'rinda Asadbekning ham Jalilning ham ijtimoiy maqomi ahamiyatsiz. Mafiyalar, asosan, ko'cha tilida gaplashishadi. Ularning nutqida argo, jargon, varvarizm, vulgarizmlar juda ko'p uchraydi. "Shaytanat" qahramonlari ham ulardan nutqlarida ko'p foydalandi:

-Nimaga unday qilding? – dedi Asadbek, mashinaga o'tirishgach.

-**Harom**idan o'chimni oldim, -dedi Kesakpolvon sigaret tutatib...[2:104]

....O'g'il bolalik shunchalar bo'ladi-da! O'zingni bosib ol, he **itdan tarqagan**,

- Jamshid shunday deb uning oyog'ini ham bog'ladi-da, chiqib ketdi.[2:106]

Bu kabi leksik birliklar badiiy asardagi muloqotlarning tabiiy chiqishiga yordam beradi. Tabiiylik esa badiiy asar uchun qo'yiladigan talablarning asosiysidir. Tohir Malik hayotidan oz bo'lsada xabardor kitobxon asarni o'qir ekan Tohir Malik ko'cha odamlarining, mafiyalarning suhbatlari qanday kechishi haqida qayerdan bildi ekan, degan savol paydo bo'ladi. Bu yozuvchining har tomonlama yetuk bilim egasi ekanligidan, yaratayotgan asarini ko'r ko'rona yozavermasdan, nima yozishni oldindan puxta o'ylaganligidan darak beradi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, Tohir Malikning "Shaytanat" romanining sotsiolingvistik jihatdan mukammal darajadali badiiy asarning qiymatini oshirgan va bu asarning barcha davrlarda sevilib o'qilishi uchun asos bo'la oladi.

Adabiyotlar ro'yxati; Библиографические ссылки; References:

1. Усмонова Ш. Социолінгвістика. Ўқув қўлланма. Тошкент -Университет. 2014. 84-б.

2. Тоҳир Малик "Шайтанат" романи. I т. Тошкент. Hilol-nashr. 2017. 221-б.
3. Boboyev T. "Adabiyotshunoslik asoslari" darslik. Toshkent. - O'zbekiston nashriyoti. - 2002. 560- б.
4. Z. İBRAGİMOVA, S. MASHARİPOVA, B. ABDULAMİTOV (2018) [O'zbek tilida ismlarning erkalash va kichraytish shakllari](#). Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi (TÜRK LAD) 2 (1), 182-186